

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH DAVLAT
QO‘MITASI**

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti**

Biotexnologiya fakulteti

« Biologiya, ekologiya va dorivor o‘simliklar» kafedrası

**60812100-Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi
ta’lim yo‘nalishi uchun**

**“Xalq tabobati dorivor o‘simliklari fanidan «Qoqi va qalampir yalpizning
tarkibi, tuzilishi, xalq tabobatida ishlatilishi »
mavzusidagi ma’ruza darsi bo’yicha**

OCHIQ DARS

Ishlanmasi



Samarqand – 2025

Tuzuvchi:

Begmatova M.X. « Biologiya, ekologiya va dorivor oʻsimliklar» kafedrası
b.f.f.d. dotsenti

Taqrizchilar:

Kasimova Sh. Agrotexnologiya fakulteti,
Oʻsimlikshunoslik va yem-xashak yetishtirish
kafedrası

Abdullayeva Yu. Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Biotexnologiya kafedrası

« Qoqi va qalampir yalpizning tarkibi, tuzilishi, xalq tabobatida ishlatilishi » ma’ruza darsining o’qitish texnologiyasi

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni:4 nafar
O’quv mashg’ulotining shakli	Ma’ruza mashg’ulot
O’quv mashg’ulotining rejasi	1. Ko’pyillik dorivor o’simlik turlarining tarqalish areali (floristik vohalar bo’yicha). 2. . Qoqi, qalampir yalpiz tuzilishi, kimyoviy tarkibi. 3. . Qoqi, qalampir yalpiz xalq tabobatida ishlatilishi. 4. Tayyorlash usullari. 5. Ularning farmatsevtik sohada qo’llanilishi.
<i>Darsning maqsadi:</i> . Ko’pyillik dorivor o’simlik turlarining tarqalish areali, tabobatda ishlatilishi	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> -maruza darsi davomida Qoqi tuzilishi, kimyoviy tarkibi, xalq tabobatida ishlatilishi to’g’risidagi tushunchalarni talabalar ongiga mustaxkamlash; - Qalampir yalpizning foydali xususiyatlari, kimyoviy tarkibi, xalq tabobatida ishlatilishi haqida tushunchalar berish. - Tayyorlash usullari. Ularning farmatsevtik sohada qo’llanilishi. O’simlik xomashyolaridan dori-darmon tayyorlash, farmakologik ahamiyati, alkaloidlar, flavonoidlar, glikozidlar, saponinlar, efir moylari va boshqalar to’g’risida ma’lumotlar berish	<i>O’quv faoliyati natijalari:</i> Talabalar: - Ko’pyillik dorivor o’simlik turlarining tarqalish farmatsevtikada ishlatilishi, to’g’risidagi tushunchalarni talabalar ongiga mustaxkamlash; - Dorivor o’simliklarni kimyoviy tarkibi, xomashyosini tayyorlash hamda damlama va nastoykalar tayyorlash va xususiyatlari haqida tushunchalar berish.
<i>Ta’lim usullari</i>	Darsni, tushunchalar tahlili, kichik guruhlarda ishlash, aqliy xujum, B/B/B,«FSMU» usuli.
<i>Ta’limni shakllantirish shakli</i>	Jamoaviy guruhli
<i>Ta’lim vositalari</i>	Ma’ruza mashg’uloti mavzusi bo’yicha dars ishlanmasi, videoprojektor, tarqatma materiallar: jixozlari, payvand pichog’i, payvadni bog’lovchi mato yoki plionkalar, rasmalar, mavzuga oid plakatlar rasmlar.
<i>Ta’lim berish usullari</i>	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og’zaki so’rov: tezkor – so’rov, test.

Ma'ruza mashg'ulotning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1 – bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daq.)	1.1. Salomlashish, davomatni aniqlash, talabalar darsga tayyorgarligini tekshirish. 1.2. Mavzuni mohiyati, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	Eshitadi, yozib oladi.
2 – bosqich. Asosiy (60 daq.)	2.1. Talabalar e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi. (Aqliy hujum metodi 1-ilova) 2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda mavzuni to'liq bayonini tushuntirib beradi. 2.3. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qilishni va yozib olishlarini ta'kidlaydi. 2.5. O'qituvchi dars oxirida qisqa savol javob qilib talabalarga yo'riqnoma berib boradi.	2.1. Eshitadi. O'ylaydi, javob beradi. 2.2. Sxema va jadvallar mazmunini muhokama qiladi. Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi. 2.3. Eslab qoladi, yozadi.
3 –bosqich. Yakuniy (10 daq.)	3.1. Mavzuni yakun qiladi, mavzuning dolzarbligiga bugungi kun talabiga mavzuni ahamiyati 3.2. Guruh ishini baholaydi; 3.3. Uyda bajarish uchun topshiriq beradi va baholash mezonlari bilan tanishtiradi.	O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadilar. Savol beradilar. Topshiriqni yozadilar.

Mavzu: Qoqi, qalampir yalpiz tarkibi, tuzilishi, xalq tabobatida ishlatilishi

Reja:

28.1.1. Qoqi, qalampir yalpiz tuzilishi, kimyoviy tarkibi, xalq tabobatida ishlatilishi.

28.1.2. Tayyorlash usullari. Ularning farmatsevtik sohada qo'llanilishi.

Tayanch iboralar: *Qoqi, qalampir yalpiz*

Dorivor qoqio't (Oduvanchik lekarstvenniy) – Taraxacum officinale Web.

Dorivor qoqio't Astradoshlar – Asteraceae (Compositae) oilasiga mansub bo'lib, bo'yi 1560 sm ga yetadigan ko'p yillik o't o'simlik xisoblanadi. Barglarining xammasi ildizoldi tupbargdan tashkil topgan qisqa bandli, nishtarsimon yoki cho'ziq nishtarsimon, patsimon kesik qirrali bo'ladi. Gul o'qi silindrsimon, ichi kovak, bo'yi 1530 sm bo'lib, uning uchiga tilla sariq rangli tilsimon gullardan tashkil topgan savatcha gulto'plami joylashgan. Qoqio'tning mevasi – uchmali pista.

Qoqio't aprelmay oylaridan boshlab, to sovuq tushguncha gullaydi va mevasi yetiladi. Qoqio't keng arealli o'simlik xisoblanadi, yer sharining deyarli barcha geografik mintaqalarida tarqalgan bo'lib, Arktika va qumsahro, cho'l zonalaridan tashqari hamma yerda nam joylarda, yo'l chekkalarida, ariq bo'ylarida, bog'larda, o'tloqlarda, dalalarda o'sadi.

Qoqio'tning hamma qismi birgalikda yoki ildizi aloxida ishlatiladi. Yer ustki qismi bilan ildizi baxorda, gullashidan oldin yig'iladi, faqat ildizi kech kuzda kovlab olinadi, suv bilan yuviladi, mayda ildizlari qirqib tashlanadi, sut shira oqib chiqishi to'xtaguncha quyoshda so'ltiladi va so'ngra bir qavat qilib yoyib quritiladi. Yer ustki qismi ildizidan ajratib, soya yerda quritiladi.

Qoqio'tning ildizi hamda yer ustki qismi tarkibida taraksatsin va taraksatserin achchiq glikozidlari, triterpen birikmalari, 24% gacha inulin, kauchuk, yog' va boshqa biologik faol moddalar bor. Qoqio't ildizining qaynatmasi va quyuq ekstrakti ishtaha ochish, ovqat hazmini yaxshilash uchun va o't haydovchi vosita sifatida jigar, o't pufagi va o't yo'llari kasalligida qo'llaniladi.

Farmatsevtika amaliyotida quyuq ekstraktidan hab dori tayyorlashda foydalaniladi. Qoqio'tning qirqilgan ildizi ishtaxa ochuvchi, o't xaydovchi va me'da kasalliklarida ishlatiladigan choylaryig'malar tarkibiga kiradi. Abu Ali ibn Sino qoqio't shirasi bilan jigar vaistisko kasalligini, ildizining sut shirasi bilan esa ko'zga tushgan oqni davolagan. Chayon chaqqan joyga u qoqio'tning quritilmagan yer ustki qismini ezib bog'lashni tavsiya qiladi.

Qoqio't ildizidan va bargidan tayyorlangan damlama xalq tabobatida bo'yрак kasalliklarida siydik xaydovchi, jigar va o't pufagi kasalliklarida o't xaydovchi, ishtaxa ochuvchi, qon tozalovchi xamda surgi vosita sifatida qo'llaniladi. Bargining shirasi kamqonlikda, quvvatsizlikda, ko'krak og'rig'ida va qabziyatda ishlatiladi. Ildizining sut shirasi bilan so'gallar yo'qotiladi.

Xalq tabobatida qoqio't siydik yo'llari kasalliklarini (sistit va uretritlar), gastrit (me'da yallig'lanishi) va boshqa kasalliklarni davolashda, gijjalarni tushirish xamda sochni mustaxkamlash (soch to'kilishiga qarshi) uchun ishlatiladi.

Qalampir yalpiz (Myata perechnaya) – Mentha piperita L.

Qalampir yalpiz yasnotkadoshlar (labguldoshlar) – Lamiaceae (Labiatae) oilasiga mansub bo'lib, bo'yi 30100 sm keladigan ko'p yillik o't o'simlik hisoblanadi. Poyasi bir nechta, tik o'sadi, to'rt qirrali, barglari cho'ziq tuxumsimon yoki nishtarsimon, o'tkir uchli, arrasimon, notekis qirrali bo'lib, qisqa bandi yordamida poyada qaramaqarshi o'rnashgan. Qizil binafsha rangli, mayda gullari poyasi bilan shoxlari uchida guj joylashgan boshqosimon to'pgulni xosil qiladi. Yalpizning mevasi – to'rtta yong'oqcha. Yalpiz iyunsentyabr oylarida gullaydi.

Qalampir yalpiz MDH mamlakatlarida yovvoyi holda uchramaydi. U Ukraina, Belorussiya va Moldaviya respublikalarida, Rossiyaning Krasnodar o'lkasi xamda Voronej viloyatida, Markaziy Osiyo davlatlarida madaniy sharoitlarda o'stiriladi.

Tibbiyotda qalampir yalpizning bargi, ba'zan, efir moyi olish uchun butun yer ustki qismi va o'simlikdan olingan efir moyi ishlatiladi. Bargi (yoki yer ustki qismi) o'simlik gullay boshlaganda o'rib olinadi, xirmonda quritiladi, ba'zan so'ri ustida yoki maxsus quritgichda quritiladi. Poyasidan barglari ajratib olinadi, poyasi esa tashlab yuboriladi. Keyin barglarini quyoshda quritib olinadi. O'simlik kuzda yangidan ko'karib, gullash davrida yana bir marta o'rib olinadi. Efir moyi olish uchun o'rilgan yer ustki qismi quritilmay xo'lligicha farmatsevtika zavodlariga yuboriladi.

Qalampir yalpiz bargi tarkibida 2,42,75% efir moyi, karotin, gesperidin, betain, ursol va oleanol triterpen kislotalari bor. Efir moyi 4165% mentol, 925% menton, 49% mentol efirlari va boshqa kimyoviy birikmalardan tashkil topgan.

Qalampir yalpiz qadimdan xalq tabobatida turli kasalliklarni davolash uchun ishlatilgan. Abu Ali ibn Sino qalampir yalpiz bilan bosh va quloq og'rig'ini davolagan, xamda ovqat xazmini yaxshilash, yaralarni, sariq va boshqa kasalliklarni davolash uchun ishlatgan.

Qalampir yalpiz bargi va efir moyining dorivor preparatlari (damlamasi, nastoykasi va yalpiz suvi) ko'ngil aynishini va qusishni to'xtatishda hamda ovqat xazmini yaxshilashda ishlatiladi. Yalpiz suvi yana og'iz chayqash, dorilar ta'mini yaxshilash uchun qo'llaniladi. Mentol preparatlari quloq, burun, nafas yo'llari kasalliklarida xamda tish og'rig'ini qoldirish uchun ishlatiladi.

Mentoldan bosh og'rig'ini qoldiradigan migren qalami tayyorlanadi. Mentol preparati – validol stenokardiyaga (ko'krak qisish kasalligi) davo qilishda ishlatiladi. Bargi tinchlantiruvchi, o't xaydovchi va me'da kasalliklarida ishlatiladigan yig'machoylar, efir moyi qorin og'rig'ini qoldiruvchi tabletka va tomchilar, mentol ingofen tarkibiga kiradi. Efir moyidan oziqovqat sanoatida va parfyumeriyada foydalaniladi. Markaziy Osiyo xalq tabobatida yalpizning yana ikki turidan foydalaniladi: bular – Osiyo yalpizi (Myata aziatskaya) – M. asiatica va Dala yalpizi (Myata polevaya) – M. arvensis turlari hisoblanadi.

Osiyo yalpizi faqat Markaziy Osiyoda, Dala yalpizi Markaziy Osiyo, MDXning Yevropa qismi, Kavkaz va Sibirdagi nam yerlarda, daryo xavzalarida, arik bo'ylarida, adirlarda, tog' etaklaridan boshlab, to tog'larning o'rta qismigacha bo'lgan yerlarda o'sadi.

Xalq tabobatida yalpizning bu turlarining yer ustki qismi ishlatiladi. O'simlik gullashidan oldin yoki gullash davrida yer ustki qismi o'rib olinib, soya yerda quritiladi, yirik poyalari ajratiladi va tashlab yuboriladi. Yalpizning bu turlarining yer ustki qismi tarkibida 0,341,58% efir moyi, flavonoidlar va boshqa moddalar bor. Efir moyi karvon, sitronellol pulegon, mentol, menton, karvakrol, silvestren va boshqa terpenoidlardan tashkil topgan.

Yalpiz turlari xalq tabobatida qadimdan qo'llaniladi. Abu Ali ibn Sino yalpizni ovqat xazmini yaxshilash, qusishni to'xtatish uchun xamda gijja xaydovchi va qon to'xtatuvchi dori sifatida ishlatgan. Yalpiz turlarining yer ustki qismidan tayyorlangan qaynatma yoki quritilmagan o'simlikdan olingan shira xalq orasida qo'tir, bod, ko'krak og'rig'i, yo'tal, shirincha, sariq kasalligi, me'da va boshqa kasalliklarni davolash uchun xamda chanqov bosuvchi, balg'am ko'chiruvchi dori sifatida qo'llaniladi.

Qalampir yalpizni Respublikamizda dorivor o'simliklar yetishtirishga ixtisoslashgan xo'jaliklarda keng miqyosda farmatsevtika maqsadlar uchun yetishtiriladi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Dorixona qoqio'tning foydali xususiyatlarini ta'riflang?
2. Dorixona ukropining kimyoviy tarkibi qanday ?
3. Dorixona ukropining xalq tabobatida ishlatilishi misollar keltiring.
4. Dorixona ukropining farmatsevtik sohada qo'llanilishi

1-ilova

Aqliy hujum metodi

1. Dorixona qoqio'tning foydali xususiyatlarini ta'riflang?
2. Dorixona ukropining kimyoviy tarkibi qanday ?
3. Dorixona ukropining xalq tabobatida ishlatilishi misollar keltiring.
4. Dorixona ukropining farmatsevtik sohada qo'llanilishi
5. Qalampir yalpizning foydali xususiyatlarini ta'riflang?
6. Qalampir yalpizning kimyoviy tarkibi qanday ?
7. Qalampir yalpizning xalq tabobatida ishlatilishi misollar keltiring.
8. Qalampir yalpizning farmatsevtik sohada qo'llanilishi

Bilaman	Bilishni hohlayman	Bilib oldim

Mavzu yuzasidan ishlash talabalarning darsda faolligini ta'minlaydi, har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi, bir-biridan auditoriyada o'rganishga imkon tug'iladi, boshqalar fikrini qadrlashga o'rgatadi.

«FSMU» usuli. O'tilgan mavzuni umumlashtirish

F	fikringizni bayon eting
S	fikringizni bayoniga sabab ko'rsating
M	ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring
U	fikringizni umumlashtiring

B/B/B/ jadvali

Asosiy adabiyotlar

1. Д.С.Ивашин. З.Ф.Катина. Лекарственные растения Украины “Урожай” 1978, 320 с.
2. Э.Т. Ахмедов, Э.Т. Бердиев. Доривор ўсимликлари етиштириш технологияси (ўқув қўлланма). - Тошкент, ЎзР ФА Минитипографияси, 2017, 252 бет
3. Х.Н. Atabayeva, J.B. Xudayqulov. O‘simlikshunoslik. -T .: «Fan va texnologiya», 2018, 408 bet

Qo‘shimcha adabiyotlar

4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. “Toshkent, “Tasvir” nashriyot uyi, 2021 yil. – 52 bet.
5. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g‘oyamizning poydevoridir. Toshkent, “Tasvir” nashriyot uyi, 2021 yil. – 36 bet.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022 yil. – 416 bet.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi “Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5696 son Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi “Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-187-son qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo‘jaligi ekinlari davlat reyestri. T., 2014.
10. Hamdamov, I., Hamdamova, E. I., Suvonova, G. A., & Begmatova, M. Botanika va o‘simliklar fiziologiyasi. Botanika qismi) Toshkent-2017 y,
11. Begmatova M.X., Elmurodov, A.A. Shernazarov Sh.Sh. Nurniyozov A.A., // Dorivor o‘simliklar yetishtirish texnologiyasi fanidan amaliy mashg‘ulotlar uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent-2023. “Fan ziyosi”

Axborot manbaalari

10. www.Ziyo.net.
11. www.uralrti.ru.
12. www.twirpx.com